
MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqlarda Qo'shtepa tumani Qumtepa mahallasidagi Terak tagi ko'chasining 50 metr qismi ta'mirtalabligi haqidagi tanqidiy murojaat e'lon qilingan edi.

Ushbu murojaat yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4898-sonli qaroriga asosan "Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasining 2-bosqichida Qumtepa MFYning infratuzilmasini yaxshilash ham ko'zda tutilgan. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra 8,5 mlrd so'm mablag' ajaratilishi rejalashtirilgan. Ushbu mablag'lar hisobiga mahalla aholisining talabidan kelib chiqib, ichimlik suvi va elektr ta'minotini yaxshilash, shuningdek ichki yo'llarni asfaltlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-03-14 16:40:03